VOLUME 4, ISSUE 2, 2023

GITARA MUSIQA ASBOBINI TEZ O‘RGANISHNING SODDA VA OSON USULLARI

Esanova Xurshida O‘ralbek qizi
Jumanazarova Sevinch G‘ulom qizi
Guliston Davlat Pedagogika instituti
Ijtimoiy-gumanitar fanlar fakulteti
Musiqa ta’limi yo‘nalishi 1-kurs talabalari

Annotatsiya
Gitara-qadimiy va keng tarqalgan torli musiqa asbobi. Odatda oltita torli bo‘ladi. Biroq to‘rt, yeti, o‘n va o‘n ikki torli gitaralar ham mavjud.Gitaraning ikki asosiy turi turi bor: akustik hamda elektrogitara.Akustik gitarada tovush torlar va gitara qornidan chiqadi. Zamonaviy akustik gitaralarning uch turi bor: klassik gitara, po‘lat torli gitara va arkali gitara. Ushbu maqolamizda biz gitara asbobini tez va oson o‘rganish usullarini bayon qilamiz.

Аннотация
Гитара-древний и широко используемый струнный музыкальный инструмент. Обычно имеет шесть струн. Однако существуют также четырех-, семи-, десяти- и двенадцати струнные гитары. Существует два основных типа гитар: акустические и электрические. В акустической гитаре звук исходит от струн и брюха гитары. Существует три типа современных акустических гитар: классические гитары, гитары со стальными струнами и арочные гитары. В этой статье мы расскажем, как научиться играть на гитаре быстро и легко.

Annotation
Guitar is an ancient and widely used stringed musical instrument. It usually has six strings. However, there are also four-, seven-, ten-, and twelve-string guitars. There are two main types of guitars: acoustic and electric. In an acoustic guitar, the sound comes from the strings and the belly of the guitar. There are three types of modern acoustic guitars: classical guitars, steel string guitars, and arched guitars. In this article, we will describe how to learn the guitar quickly and easily.

Kalit so’zlar
gitara, gitara turlari, boy,akkord, perebor, notalarni harfiy sistemasi, lad tushunchasi, gitara torlari.

Ключевые слова
гитара, виды гитары, аккорд, перебор, буквенная система нот, понятие звукоряда, гитарные струны.

Key words
guitar, types of guitar, chord, perebor, alphabetic system of notes, concept of scale, guitar strings.

Yuqorida aytganimizdek, gitara- torli tirnama asbobi. Torlari barmoq bilan chalinadigan musiqa asboblari bundan kamida 5 ming yil avval ham ma’lum bo‘lgan. U qadimgi Yunonistonda paydo bo‘lgan, ikkinchi vatanini Ispaniyada topgan.Keyinchalik gitara Ispaniyadan butun Yevropaga tarqaldi. Uni Italiya, Germaniya, Fransiya va Rossiyada e’tirof etdilar va yaxshi ko‘rib qolib qoldilar. Dastlab 4-5 juft torli gitaralar ishlatilgan. O‘n sakkizinchi asrning ikkinchi yarmidan olti torli gitara mashhur bo‘lgan.Yigirmanchi asrda “gavay gitarasi” (tizzaga qo‘yib maxsus elektr bilan chalinadi), jazz gitarasi, elektrogitara, bas gitaralar paydo bo‘ladi. 1930-yillarda elekrogitaralar ixtiro qilindi.Bu gitaralar maxsus kuchaytirgich orqali tovushni o‘zgartira oladi. Ilk elektrogitaralar qorni kovak

VOLUME 4, ISSUE 2, 2023

bo‘lgan. “Gitara” so‘zining kelib chiqishi quyidagicha deb tahmin qilinadi: forscha- sinhtar yoki yunoncha kifara; lotincha- kitara; arabcha-qitara; ispancha – guitarra. Ammo keyinchalik elektrogitaralarda kichkina, qattiq qorinlar qo‘llanila boshlandi.Gitara asbobi hozirgi kunda butun dunyoda sevib chalinadigan, yaxshi rivojlangan,o‘rganishni istagan insonlar soni ko‘pchilikni tashkil etgan, go‘zal ovozga ega bo‘lgan asbobdir.Gitaralar ko‘pincha blues, bluegrass, country, flamenco, folk, jazz, jota, mariachi, heavy metal, punk, reggae, rock, soul va pop musiqa janrlarida qo‘llaniladi.

Gitara chalishni shunchaki o‘zi uchun o‘rganuvchi insonlar gitaradagi notalarni bilishi yoki yodlashi shart emas. Faqatgina barcha qo‘shiqlarda kerak bo‘lgan, ko‘plab qo‘llaniladigan oddiy boy va pereborlarni, akkordlarni bilish bilan kifoyalansa bo‘ladi. Bunday akkordlarga biz- Do (C), Re (D), Mi (R), Fa (F), Sol (G), Lya (A), Si (H) -akkordlarini, ularning ham ichidan saralab oladigan bo‘lsak: Lya minor (A moll), Re minor (D moll), Mi major (E dur)- akkordlarini keltirishimiz mumkin. Yuqorida sanaganlarim oddiy akkordlar hisoblanib, ularni biz gitaraning maxsus asbobi bo‘lmish qistirgich bilan murakkab akkordlarga aylantirishimiz mumkin. Gitaradagi lad tushunchasi bu, gitara dastasida alohida qilib chegaralangan o‘n ikkita asosiy ladlar tushuniladi. Hamda gitara asbobidagi torlar pastdan yuqoriga qarab sanaladi. Barmoqlarimiz ham raqamlar bilan nomlangan bo‘lib, chap qo‘limizdagi bosh barmog‘imizdan chalganimizda umuman foydalanmasligimiz tufayli uni hech qanday raqam bilan nomlamaymiz, ko‘rsatgich barmog‘imiz-1, o‘rtanchi barmog‘imiz-2, undan keyingi barmog‘imiz- 3, eng kichik barmog‘imiz esa-4; o‘ng qo‘limizdagi barmoqlarimizning barchasidan foydalanimiz, eng kichkina barmog‘imiz-1, undan keyingisi-2, o‘rtanchisi-3, ko‘rsatkich barmog‘imiz- 4, bosh barmog’imiz esa- 5.

Xo’sh, yuqorida sanab o‘tgan oddiy akkordlar qayerda joylashgan: Lya minor (A moll)- gitara dastasida 1-ladning 2- torini chap qo‘limizning 1-barmog‘i ya’ni ko‘rsatkich barmog‘i bilan, 2-ladning 5- torini 3- barmog‘imiz bilan, 4-torini esa 2-barmog‘imiz bilan bosishimiz orqali hosil qilinadi. Re minor (D moll)- 1-ladning 2-torini 1-barmog‘imiz bilan, 2-ladning 3-torini 2-barmog‘imiz bilan, 3-ladning 1-torini esa 3-yoki 4-(o‘zimizga qulay bo‘lgan) barmoqlarimizni qo‘yishimiz orqali hosil qilinadi. Mi major (E dur)-1-ladning 3-torini 1-barmog‘imiz bilan, 2-ladning 4-torini 2-barmog‘imiz bilan, 5-torini esa 3-barmog‘imiz bilan bosishimiz orqali hosil qilamiz. Ushbu akkordlarni barmoqlarimiz bilan qo‘yganimizda va keyin barmoqlarimizni olganimizda darrov yodimizdan ko‘tarilib qoladi. Shuning uchun ushbu akkordlarni men yuqorida ko‘rsatgan ko‘rinishlarga asoslanib barmoqlarimizni qo‘yganimizdan so‘ng unchalik uzoq masofaga emas, yaqin masofa oralig‘ida olib, yana shu akkordlarni barmoqlarimiz bilan qo‘yishimiz kerak. Bu mashqni ko‘p marotaba bajarsak, biz ushbu akkordlarni ko‘z yumgan holda ham qo‘ya olishimiz mumkindir.

Yuqoridagilarning barchasi bu gitarada chap qo‘limizda qo‘yadigan akkordlar edi. Gitaraning o‘ng qo‘lida chalinadiganlari boy va pereborlardan iboratdir. Boyning pereborlardan farqi deyarli barcha barmoqlarimiz bilan gitaraning deyarli barcha torini chertishimizdadir. Pereborlarda esa har biri tori alohida barmoqlarimiz orqali alohida-alohida chalinadi. Lekin har ikkisi ham, ya’ni boy va perebor ham gitara qorninig o‘rtasida, yumaloq o‘yiq joyida chalinadi, chunki aynan shu joyida chalinsa gitara tovushi baland va jarangli chiqadi. Boylardan ko‘p tarqalganlari to‘rttalik va oltitalik boylardir. To‘rttalik boy: pastga, tepaga, pastga (priglushka, ya’ni biroz kaftimiz bilan urgan holda) va yana tepaga kabi harakatlardan iborat. Oltitalik boy: pastga, pastga (priglushka, ya’ni biroz kaftimiz bilan urgan holda), tepaga, tepaga, pastga va tepaga kabi harakatlardan iborat. Oltitalik boy ham, to‘rttalik boy ham o‘ng qo‘limizning barcha barmoqlari bilan birgalikda gitara qorning o‘rtasida chalinadi.Ushbu osson va ko‘p qo‘llaniladigan boylarni mukammal o‘rganib olsak, qolgan

murakkabroq boylarni hech qanday qiyinchiliklarsiz o‘rgana olishimiz mumkin. Bundan tashqari ushbu boylarni birinchi marotaba o‘rganayotganimizda qo‘limizga gitara simi orqali shikast yetkazib qo‘yishimiz mumkin.Shu tufayli aynan gitarada emas, birinchi havoda bu harakatlarni bajarsak maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunday boylarni esa biz faqatgina ko‘p eshitish orqali va ko‘p mashq qilishimiz orqali o‘rganib olishimiz mumkin.

Endigi navbat pereborlarga, pereborlar ko‘proq sokin va ma’yusroq qo‘shiqlarga nisbatan qo‘llaniladi. Pereborlar ham boylar singgari o‘ng qo‘limiz barmoqlari yordamida, gitara qorninig o‘rtasida, har bir torga alohida belgilab qo‘yilgan barmoqlarimiz orqali chalinadi.Keng qo‘llaniladigan pereborlar strukturasi:

5(6-4)- 3-2-3
5(6-4)-3-2-1-2-3
5(6-4)-3-2-3-1-3-2-3

Ushbu struktaridagi raqamlar bu gitaradagi oltita torni bildirib, ularni chalishimizning ketma-ketligidir. Yuqorida aytganimdek gitaraning torlari pastdan yuqoriga qarab chalinadi. Ushbu pereborlarni biz o‘ng qo‘limizda, chap qo‘limiz yordamida akkordlarni qo‘ygan holda chalamiz.Har bir strukturaning boshlanishida 5-6-4-torlarni yozishimizning sababi ularning barchasi turli akkordlarga nisbatan qo‘llaniladi. Masalan, perebor boshlanishida do akkordiga nisbatan 5-torni, re akkordiga nisbatan 4-torni, mi akkordiga nisbatan 6- torni, fa akkordiga nisbatan 6- torni, sol akkordiga nisbatan ham 6- torni, lya akkordiga nisbatan 5-torni, si akkordiga nisbatan ham 5-torni qo‘llaymiz va mana shu torlarning barchasi (5-6-4) doimo o‘ng qo‘limizning bosh barmog‘i orqali chalinadi. Perebor strukturalaridagi qolgan barcha torlar esa shu raqamdagi barmoqlarimiz orqali chalinadi.Yuqorida ko‘rsatgan pereborlarning barchasi oddiy va sodda ko‘rinishdagilari bo‘lib, boshqa shunaqa ko‘rinishdagi pereborlarni o‘zingizning ijodiy xohishingizga va qo‘shiq tempi va ritmiga asoslanib, o‘ziz yaratsangiz ham bo‘ladi. Ushbu pereborlarni tezroq o‘rganish uchun barmoqlarimizni ana shu usulga o‘rgatishimiz, ko‘proq mashq qilishimiz va ko‘zimizni yumgan holda ham chaladigan darajada bo‘lishimiz zarur. Chunki gitara chalayotganimizda ko‘proq e’tiborimizni akkord qo‘yishga, anniqrog‘i chap qo‘limizda bo‘lishi zarurdir.

Xulosa

Gitarani chalishni tez va oson o‘rganish uchun yuqoridagi ko‘rsatmalarga amal qilish kerak va ko‘p mashq qilish kerak.

Foydalanilgan manbalar

1.https://youtube.com/watch?v=1VkWK3PAaLM&feature=share
2. https://youtube.com/watch?v=npLdYCgI8sQ&feature=share